

UZBEKISTAN STATE UNIVERSITY  
OF WORLD LANGUAGES



# АРАБСКИЙ ЯЗЫК В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

"اللغة العربية في عصر العولمة : مناهج  
وأاليب تدريس مبتكرة"

المؤتمر العلمي والعملي الدولي

# ARABIC LANGUAGE IN THE ERA OF GLOBALIZATION: INNOVATIVE APPROACHES AND TEACHING METHODS

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



2023

## "BLANC" – "OQ" RANG VOSITASIDA HOSIL BO'LGAN FE'LLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

**Hojiyeva Gulchehra Salimovna,**

*BuxDU Fransuz filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (Phd)*

**Shirinova Gulsanam Luqmon qizi,**

*Buxoro davlat universiteti 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy fransuz tilida fe'l so'z turkumi vositasida hosil bo'lgan frazeologik birliklarning ma'no xususiyatlari, ranglar vositasida yasalgan frazeologizmlarning gap mazmunini kuchaytirishdagi ahamiyati, xususan, "blanc" – "oq" rang ishtirokida hosil bo'lgan iboralarning leksik-semantik o'ziga xosligi ularning o'zbek tilidagi tarjimalari asosida o'xshash va farqli jihatlari ko'ra qiyosiy-chog'ishtirma tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar.** Ranglar vositasida yasalgan ibora, fe'li frazeologik birlik, oq yo'l tilamoq, og'ziga talqon solmoq, voir tout en blanc, montrer patte blanche, laisser une marge blanche

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются семантические особенности фразеологизмов, образованных с помощью глаголов в современном французском языке, значение выражений, выполненных с помощью цветов, в усилении содержания предложения, в частности, лексическая особенность фразеологизмов, образованных с участием цвета «blanc» – «белый» сравнивается и анализируется смысловая специфика их сходства и различия на основе их узбекских переводов.

**Ключевые слова.** Фраза, составленная с помощью цветов, фразеологизм с глаголом, пожелать хорошего пути, молчать, voir tout en blanc, montrer patte blanche, laisser une marge blanche

**Annotation.** This article analyzes the linguistic characteristics of phraseological units formed through the prism of contemporary French verb conjugation, emphasizing the significance in conveying meaning through colors, particularly exploring lexical-semantic peculiarities of expressions involving the color "blanc" (white). The study delves into comparative and contrastive analysis of these expressions based on their lexical-semantic features, drawing parallels and distinctions in their Uzbek translations.

**Key words:** expressions formed through color associations, verbal phraseological units, wishing safe travels, to hold one's tongue, voir tout en blanc, montrer patte blanche, laisser une marge blanche



Zamonaviy fransuz tilida fikrning eng nozik tomonlarini leksik-semantik xususiyatlariga ko‘ra ifodalashda o‘tli, olmoshli, ravishli, predlog va bog‘lovchili iboralar bilan birgalikda fe‘lli iboralardan ham unumli foydalaniladi.

Frazeologizmlar ichida fe‘lli frazeologik birlik (bundan keyin – FB)lar katta miqdorni tashkil etadi. Buni zamonaviy fransuz tilidagi o‘rtacha har ikki FBdan biri fe‘lli FB ekanligidan ham payqash mushkul emas.

Sodda fe‘llar vositasida yasalgan iboralar umumiy fransuz tili gap qurilishida muhim o‘rin egallaydi. Ularning ko‘pchiligi être, avoir, faire, mettre, prendre kabi fe‘llar yordamida yasaladi. Bunday holatda fe‘llar gapda alohida emas balki, o‘zi birikkan so‘z bilan birgalikda gap bo‘lagi vazifasini bajaradi.

Substantiv, ravishli FBlardan farqli ravishda fe‘lli iboralar leksik-grammatik jihatdan boshqa turdan hosil ham bo‘lmaydi va boshqa turdagi FBlarga asos ham bo‘lolmaydi. Fe‘lli frazeologizmlar boshqa so‘z turkumlari bilan yasalgan shu turdagi birliklardan farqli, tarkibida albatta fe‘l ishtirok etishi bilan xarakterlanadi. Bunda iboralar tarkibidagi fe‘l aksar holatlarda birinchi o‘rinda, kamdan-kam hollarda esa ikkinchi o‘rinda joylashgan bo‘ladi.

Fransuz tilida ranglar vositasida hosil bo‘lgan FBlar tarkibida ham yuqorida nomlari keltirilgan fe‘llar yordamida yasalgan iboralar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bunday iboralarga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

1. être (se mettre, se trouver) dans de beau (de jolis, de mauvais, de vilains) draps blanc – noqulay ahvolda qolmoq, xijolatli, mushkul vaziyatga tushmoq;
2. être dans le noir – dom-daraksiz yo‘qolmoq;
3. être en noir – azada yurmoq, aza tutmoq;
4. être (couché) sur des roses – hayot lazzatlaridan bahra olmoq;
5. faire du marché noir – olib-sotarlik, chayqovchilik qilmoq.

Fe‘lli FBlar yasalishi jarayonida **à**, **en**, **de** predloglarining tilda keng qo‘llanilishi haqidagi mulohaza Z.N.Levit tomonidan hozirgi fransuz tili FBleri tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi turli xil so‘zlarning qo‘llanilish darajasini tahlil qilish orqali o‘z isbotini topgan.

Z. Levitning fikrlarini M.S.Guricheva tomonidan bildirilgan quyidagi xulosa ham tasdiqlaydi: “Fransuz tilidagi **à** va **de** predloglari qadimdan keng tarqalgan bo‘lib, ko‘plab semantik munosabatlarni ifodalovchi predloglar hisoblanadi”.

Ma‘lumki, FBlar obrazlilikni, ekspressivlik va emotsionallikni aks ettiruvchi muhim voasitalar bo‘lib, ular badiiy asar matnining ifodaviy ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi, xususan, ranglar vositasida hosil bo‘lgan FB (bundan keyin – RVHBF)lar ham.

Biz tadqiq etayotgan RVHBFBlarning ham asosiy qismini fe‘lli iboralar tashkil etadi. Tadqiqot davomida mavzuga mos misollar jamlanib, quyida ana shu misollar ichidan rang bilan bog‘liq fe‘lli iboralar tahlil qilindi.

Ta‘kidlash joizki, **oq rang** hayotimizda eng ko‘p qo‘llaniluvchi ranglardan biridir. Birgina “Blanc” (“Oq” rang) vositasida hosil bo‘lgan FBlarni qiyosiy o‘rganib, ularning qo‘llanilishida quyidagi o‘ziga xosliklarni kuzatish mumkin.

Masalan: **1. “Voir tout en blanc”** – “hamma narsani yaxshi qiyofada ko‘rmoq”, “hamma narsaning yaxshi tomonini ko‘rmoq” iborasi optimist odamlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Asliyatda: M. de Chevreuse, toujours équanime, toujours espérant, toujours **voyant tout en blanc**, essaya de nous prouver, par ses raisonnements de physique et de médecine, qu’il y avait plus à espérer qu’à craindre...

Tarjimada: Har doim xotirjam, orzu qilishdan to‘xtamaydigan, **hamma narsaning yaxshi tomonini ko‘ruvchi** janob Shevro‘z bizga o‘zining fizika va tibbiyotdagi mulohazalari orqali vahimaga tushishdan ko‘ra umid qilishda ko‘proq asos borligini singdirishga harakat qilardi (Tarjima mualliflarniki).

Ushbu iboraning fransuzcha shaklidagi “blanc” so‘zi dominant sanaladi. O‘zbek tilida esa “oq” rang yaxshilik belgisi hisoblanib, buni o‘zbek milliy til xususiyatida aks etadigan ramziy ma‘nodagi “ko‘ngli oq”, “oq yo‘l tilamoq” kabi so‘z va so‘z birikmalarda ham ko‘rish mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ushbu o‘rinda “hamma narsaning yaxshi tomonini ko‘rmoq” hissiy-bo‘yoqdor so‘z birikmasi vujudga kelgan. Garchi yuqorida keltirilgan “voir tout en blanc” va “hamma narsaning yaxshi tomonini ko‘rmoq” o‘zaro ma‘nodosh hisoblansa-da, faqat 1-misol tarkibida rangga oid so‘z ishtirok etib, ibora orqali ifodalangan, 2-misolda tarjima ma‘nosi erkin so‘z birikmaga ekvivalent bo‘lib kelmoqda.

Fransuz adiblari asarlarida tez-tez qo‘llaniladigan “Montrer patte blanche” idiomasi o‘zbek tiliga turg‘un ibora tarzida o‘giriladi. Bu ibora “belgi bermoq”, “bildirmoq” ma‘nosini anglatadi.

**2. Asliyatda:** José a sonné deux fois, comme il était convenu, pour **montrer patte blanche**.

Tarjimada: Oldindan kelishilganidek, **belgi berish uchun** Joze eshik qo‘ng‘irog‘ini ikki marta bosdi (Tarjima mualliflarniki).

Ushbu misolda faqat fransuz tilidagi FB rang vositasida ifodalangan va “fe‘l+ikkinchi darajali bo‘laklar” shaklida hosil bo‘lgan, o‘zbek tilidagi ibora esa variantdosh so‘zlar yordamida yasaliib, gapdagi vazifasiga ko‘ra kesim emas, maqsad holi (ravishli FB)ni ifodalab kelgan.

Fransuz tilidagi “laisser une marge blanche” iborasi o‘zbek tilidagi “sukut saqlamoq” turg‘un iborasiga ekvivalentdir:

**3. Asliyatda:** Elle ne disait que les choses qu’on était bien obligé de dire et **laisser pour le reste une grande marge blanche...**

Tarjimada: U faqat aytishga majbur bo‘lgan gaplarnigina aytar, qolganlariga **sukut saqlardi** (Tarjima mualliflarniki).

Bu tarjimada albatta, asliyatdagi ma‘no to‘la aks etib, iboralar milliy til xususiyatlarini saqlagan holda keltirilgan.. “Frazeologizmlar ham leksik birliklar kabi o‘z sinonim va variant qatorlariga ega, bu ularning ma‘nolarini ifoda qilishda, til boyligini oshirishda katta ahamiyatga ega”. Shunga tayanib, FBni o‘zbek tilida mos idiomatik ibora bilan aks ettirilsa, “og‘zida qatiq ivitmoq”, obrazli tarzda berilganda, “mum tishlamoq”, “og‘ziga talqon solmoq” singari tarjima qilish mumkin. Yuqoridagi misolda esa “sukut saqlamoq” iborasi o‘rinlidir.





Yuqoridagi misollardan ranglar vositasida hosil bo‘lgan fransuz FBlarining o‘zbek tilidagi ekvivalentlari hamda ularning tarjimada bir necha ma‘no anglatilish xususiyati bilan tanishib chiqish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Badiiy asarlarda FBlardan foydalanish barcha tillarga xosdir, frazeologizmlardan anglashilayotgan ma‘nolar aniq vaziyatlarni tasvirlash asosida shakllanadi.

2. Ko‘p ma‘noli iboralarning qanday ma‘no ifodalashi ularning kontekstdagi mazmunidan kelib chiqadi.

3. Fe‘lli frazeologizmlar qurilishida être, avoir, faire, mettre, prendre kabi fe‘llar muhim o‘rin egallaydi va bu jarayonda à, en, de predloglari keng qo‘llaniladi.

4. FBlar tarjimada har doim ham frazeologizmlar bilan ifodalanmay, FBga yaqin boshqa so‘z birikmalar bilan ham ifodalanishi mumkin.

5. RVHFBF bir vaqtda bir necha (ikki, uch, to‘rt va beshtagacha) ma‘no ifodalash xususiyatiga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Fransuzcha-o‘zbekcha lug‘at. Tuzuvchilar X. Ibragmov va b. Nihol, – T., 2008.
2. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – T., 1991.
3. Гурьчева М.С. Очерки по синтаксису новофранцузского языка. – М., ВШ, 1965.
4. Левит З.Н. К проблеме изучения компонентов фразеологических единиц (на материале французского языка). //Фразеологические науки. – М., 1965, №2.
5. Назарян Г.А. Фразеология современного французского языка. ВШ, 1987.
6. Русско-узбекский словарь. II том. – Т., 1984.
7. Larousse. Dictionnaire Maxipoche 2011. Éditions Larousse. – Paris, 2010.
8. Triolet E. Personne qui ne m’aime. – P., 1965.
9. Hojiyeva G.S. Linguvoculary Properties Of Art Terms (On The Example Of French And Uzbek Languages). International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). ISSN: 2509-0119. Vol. 25 No. 1. February 2021, pp. 09-15 <http://ijpsat.es/index.php/ijpsat/article/view/2746>
10. Gulchehra Hojiyeva. NATIONAL IDENTITY AND LINGUISTICAL ANALYSIS OF TRANSLATION OF ART TERMS IN UZBEK LANGUAGE. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. P-ISSN: 2204-1990. Vol. 27, No. 2, 2021. Pages 1651-1660. DOI: 10.47750/cibg. 2021.27.02.174 [https://www.cibgp.com/article\\_9597.html](https://www.cibgp.com/article_9597.html)
11. Hojiyeva G.S. “San‘at” terminining fransuz va o‘zbek tili lug‘atlari asosida lingvo-madaniy tahlili. Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik: muammo, yechim va istiqbollar. – Buxoro, 2021. – B.62-68. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=LFhC4PMAAAJ&citation\\_for\\_view=LFhC4PMAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LFhC4PMAAAJ&citation_for_view=LFhC4PMAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC)



<b>R.N. Abduzokhirova.</b> Idiomatic expressions containing a toponym .....	425
<b>P.A. Najimova.</b> Linguocultural and linguistic translation aspects of proper names and their translation from English into Karakalpak language .....	430
<b>Sh.F. Sharobidinova.</b> Understanding of cancer terminology among uzbek people .....	433
<b>D.A. Sabirova.</b> Rhetoric in pedagogical speech.....	438
<b>D.U. Mirsagatova.</b> Termin va terminologiya berilgan ta'riflar.....	441
<b>M.N. Musabekova.</b> Ilmiy matnni tarjima muammolari va xususiyatlari .....	445
<b>N.Sh. Tursunova.</b> Topishmoq tushunchasi turli olimlar nigohida .....	451
<b>N.E. Yo'ldasheva, Kh.B. Bakirova.</b> The adequacy and variability of the translation of terms in technical texts.....	454
<b>J.D. Xudayberdiev.</b> Og'zaki tarjimaga o'qitishda integratsion ta'lim tushunchasi.....	458
<b>A.Y. Шералиева.</b> Перевод безэквивалентной лексики с Английского на Узбекский язык .....	462
<b>G.S. Hojiyeva, G.L. Shirinova.</b> "Blanc" – "oq" rang vositasida hosil bo'lgan fe'lli frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari .....	469
الطب في وجود أدب اللغة العربية. وليد جاسم عباس الزبيدي (الموضوع: مشاكل تعلم اللغة العربية وطرق حلها) .....	474
<b>S.S. Khodjaeva.</b> Ethics of the translator in the modern world .....	479
<b>A.K. Bobonazarova.</b> Explaining magic: a deep dive into translating the fantastic elements of harry potter novels into uzbek.....	483
<b>M.A. Ismatova.</b> Pragmatic characteristics in translating legal terms .....	486
<b>B.S. Ergashova.</b> Janni Rodarining "Chippolinoning sarguzashtlari" asarida qo'llanilgan "o'zgaruvchan otlar"(nomi alterati)ning badiiy manzara yaratishdagi ahamiyati .....	494
<b>N.Y. Xamidova.</b> Reklama matnlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	498
<b>M. Usmonxodjayeva.</b> Nemis tilini o'qitishda ijodiy yondashuvning ahamiyati .....	501
<b>N.M. Arifjanova.</b> Leksik va semantik bog'lanishlarning ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish muammolari.....	506
<b>Я.М. Қосимова.</b> Бадий таржима жараёнида таржимоннинг маҳорати .....	510
<b>S.N. Ibrohimov, G.G. Tikaev.</b> Arab ommaviy axborot vositalarida maqola sarlavhalarining ifodalanishi va uning o'zbek tilidagi talqini .....	514
<b>A.G. Allabergenova.</b> Simultaneous interpreting as an extreme type of cognitive process .....	518
<b>A.A. Safaraliyeva.</b> The importance of legal translation in international law .....	522